



NAVOIY VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



2023- YILDA NAVOIY VILOYATIDA TURIZM VA DAM OLISH RIVOJLANISHINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Navoiy viloyatida turizm va dam olish rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari


Turizm xalqaro xizmatlar bozori tarkibidagi muhim tarmoqlardan biri bo'lib, buning natijasida XXI asrning boshida (bir qator tabiiy ofatlar, global inqiroz va siyosiy mojarolarning keskinlashuviga qaramay) iqtisodiy samaradorlik bo'yicha dunyoda birinchi o'rinni egallagan bo'lib neft ishlab chiqarish va avtomobilsozlik kabi muhim tarmoqlarni ortda qoldirgan.



Biroq, turizm nafaqat iqtisodiy rivojlanishning kuchli vositasi, shuningdek, u muayyan hudud qiyofasini yaratish, kelajak yutuqlari va tarixini targ'ib etishda ham samarali omil bo'lib xizmat qiladi. Turizm mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga eng katta ta'sir ko'rsatadi. Turli davlatning turistik va rekreatsion salohiyati juda murakkab tushuncha bo'lib, bir ma'noda talqin qilish va baholash qiyin. Bu ko'p jihatdan turistik salohiyatning asosini, har bir alohida davlatning kelib chiqishi va mohiyatiga ko'ra har xil bo'lgan madaniy, tabiiy va tarixiy meros obyektlari tashkil etishiga bog'liq. Shu bilan birga, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy, ijtimoiy va psixologik xususiyatga ega bo'lgan bir qancha tashqi omillar turistik yo'nalishning jozibadorlik darajasining yakuniy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda dunyoda turizmning roli doimiy ravishda o'sib bormoqda, bu turizmning odamlar hayotidagi roliga, shuningdek, butun mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'siri kuchayishi bilan bog'liq. Turizmdagi xizmatlarning aksariyati eng kam yo'qotishlar bilan amalga oshiriladi, turizm jahon iqtisodiyotiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda ularning barchasi turizmning o'ziga xos belgisidir. Faoliyatning turizm sektori qo'shilgan qiymatning eng yuqori ko'rsatkichiga erishishga imkon beradi. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida sayyohlik kompaniyalari yangi xizmatlar va mahsulotlarni ishlab chiqish muhimligi va zarurligini tobora ko'proq anglab yetmoqda.

2023- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilda Navoiy viloyatida turistik firma va tashkilotlar soni **23** tani tashkil etdi. Ular tomonidan **16,5** ming nafar shaxslarga xizmat ko'rsatilib, ulardan 5,0 ming nafari viloyatimizga tashrif buyurgan sayohatchilar qabul qilindi, 11,5 ming nafari xorijiy mamlakatlarga va O'zbekiston Respublikasi bo'ylab sayohatlarga jo'natildi.




-  Turistik firma va tashkilotlar soni, *birlik*
-  Xizmat ko'rsatilgan shaxslar soni, *ming kishi*





2023- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Turistik firma va tashkilotlarining shahar va tumanlar bo'yicha soni, birlik



2023- yilda qabul qilinganlar soni, kishi



2023- yilda jo'natilganlar soni, kishi




2023- yilda turistik firma va tashkilotlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari

	Soni, birlik	Qiymati, mln. so'm
Sotilgan sayyohlik yo'llanmalari – jami	94	626,5
ulardan bevosita aholiga	94	626,5
shu jumladan:		
O'zbekiston hududi bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	-	-
chet el mamlakatlari bo'yicha O'zbekiston fuqarolariga	94	626,5
ulardan MDH mamlakatlari bo'yicha	-	-
O'zbekiston hududi bo'yicha MDH fuqarolariga	-	-
O'zbekiston hududi bo'yicha boshqa chet el mamlakatlari (MDH mamlakatlaridan tashqari) fuqarolariga	-	-


Turistik firma va tashkilotlar xodimlari, kishi



2023- yilda jamoaviy joylashtirish vositalari obyektlari soni

Jamoaviy joylashtirish vositalari mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari (32 ta), ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari (16 ta), individual joylashtirish vositalari (22 ta) va boshqa joylashtirish vositalaridan (13 ta) iborat.

Joylashtirish vositalari soni, birlik



Xonalar

Xonalar (nomerlar) soni, birlik

1817 ta

Joylar soni, birlik

3785 o'rin

Joylashtirilgan shaxslar soni, jami

90921 kishi

Tunab qolishlar soni, jami

318429 birlik

2023- yilda mehmonxona va shunga o'xshash turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yil davomida Navoiy viloyatida **32** ta mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **100 %** mehmonxonalar to'g'ri keldi.

Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar, birlik




Xonalar (nomerlar) soni, birlik – **941** ta
 Joylar soni, birlik – **1646** o'rin

Joylashtirilgan shaxslar soni, jami – **48647** kishi
 Tunab qolishlar soni, jami – **117826** birlik




Mehmonxonalar va shunga o'xshash obyektlar shahar va tumanlar bo'yicha soni, birlik




2023- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylardagi shaxslarni joylashtirish

2023- yil davomida mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalariga **48647** kishi joylashtirildi, ulardan **91,9 %** O'zbekiston fuqarolari, **3,8 %** MDH davlatlari fuqarolari va **4,3 %** xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilganlar shaxslar soni



Safar maqsadlari bo'yicha joylashtirilgan shaxslar, kishi



2023- yilda mehmonxonalar va shunga o'xshash turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **41839** kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadida, **4118** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **1347** kishi boshqa shaxsiy maqsadida, **684** kishi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida, **414** kishi ziyosat qilish maqsadida, **230** kishi do'stlar va qarindoshlardan xabar olish maqsadida, **13** kishi tranzit va **2** davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida.

2023- yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1-3 kun tunab qolganlar 84,8 %, 4-7 kun tunab qolganlar 12,9 %, 8-28 kun tunab qolganlar 2,0 %, 29-365 kun tunab qolganlar 0,3 % tashkil etadi.

	Jami	1 - 3 kun tunash	4 - 7 kun tunash	8 - 28 kun tunash	29 - 91 kun tunash	92 - 182 kun tunash	183 - 365 kun tunash
Joylashtirilgan shaxslar, <i>kishi</i>	48647	41252	6292	978	113	8	4
shu jumladan fuqarolar:							
O'zbekistondan	44683	38218	5717	709	39	-	-
MDH mamlakatlaridan	1867	1566	240	39	21	-	1
Xorijiy davlatlardan	2097	1468	335	230	53	8	3

Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari xodimlari, *kishi*

jami 285 ta, ulardan:

42,8 %
erkaklar



57,2 %
ayollar



mehmonxona ma'murlari

62

menejerlar

24

mehmonxona shveysari va oqsochlar

94


restoran va bar xodimlari

13

2023- yilda ixtisoslashtirilgan turar joy obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish turar joy obyektlari soni **16** tani tashkil etib, shundan 31,2 % Navoiy shahrida va qolgan 68,8 foizi Karmana, Konimex, Navbahor, Nurota, Uchquduq, Xatirchi tumanlarida faoliyat yuritmoqda.


Ixtisoslashtirilgan turar joy obyektlari shahar va tumanlar bo'yicha soni, birlik



Turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan turar joy obyektlari soni, birlik




Xonalar




2023- yilda ixtisoslashtirilgan turar joylardagi shaxslarni joylashtirish

2023- yil davomida **19790** kishi ixtisoslashtirilgan turar joylarga joylashtirildi, ulardan **77,7 %** O'zbekiston fuqarolari, **1,0 %** MDH davlatlari fuqarolari va **21,3 %** xorijiy davlatlar fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilganlar shaxslar soni



Safar maqsadlari bo'yicha joylashtirilgan shaxslar, kishi



Ixtisoslashtirilgan joylashtirish muassasalariga joylashtirilgan shaxslardan **9582** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **9203** kishi davolovchi va sog'lomlashtiruvchi muolajalar maqsadida, **751** kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlarda, **254** kishi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelgan.

2023- yilda turish muddati bo'yicha ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1–3 kun tunab qolganlar 42,6 %, 4–7 kun tunab qolganlar 11,7 %, 8–28 kun tunab qolganlar 45,6 %, 29–91 kun tunab qolganlar 0,1 % tashkil etadi.

	Jami	1-3 kun tunash	4 – 7 kun tunash	8 – 28 kun tunash	29 – 91 kun tunash
Joylashtirilgan shaxslar, jami	19790	8435	2313	9024	18
shu jumladan fuqarolar:					
O'zbekistondan	15384	4053	2309	9004	18
MDH mamlakatlaridan	197	173	4	20	-
Xorijiy davlatlardan	4209	4209	-	-	-

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari xodimlari, kishi

jami 488 ta, ulardan:

27,3 %
erkaklar



72,7 %
ayollar



menejerlar

3

restoran va bar xodimlari

6

shifokorlar

19

o'rta tibbiyot xodimlari

126

2023- yilda individual joylashtirish vositalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yil davomida Navoiy viloyatida **22** ta individual joylashtirish vositalari obyektlari faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ulardan **86,4 %** mehmon uylari, **13,6 %** o'tov lagerlari ulushiga to'g'ri keldi.

Individual joylashtirish vositalari obyektlari, birlik




Xonalar (nomerlar) fondi

Xonalar (nomerlar) soni, birlik
160 ta
Joylar soni, birlik
502 o'rin

Joylashtirilgan shaxslar soni, jami
14200 kishi
Tunab qolishlar soni, jami
25292 birlik


Individual joylashtirish vositalari obyektlari shahar va tumanlar kesimida, birlik




2023- yilda individual turar joylardagi shaxslarni joylashtirish

2023- yil davomida individual turar joylarga **14200** kishi joylashtirildi, ulardan **44,0 %** O'zbekiston fuqarolari, **3,3 %** MDH davlatlar fuqarolari va **52,7 %** xorijiy davlatlari fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilganlar shaxslar soni



Safar maqsadlari bo'yicha joylashtirilgan shaxslar, kishi



Individual turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **9758** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida, **4441** kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlarda, **1** kishi ta'lim va kasbiy tayyorgarlik maqsadida kelgan.

2023- yilda turish muddati bo'yicha individual joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi

Individual joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishidan ko'rish mumkinki, 1–3 kun tunab qolganlar 92,7 %, 4–7 kun tunab qolganlar 6,0 %, 8–28 kun tunab qolganlar 1,1 %, 29–365 kun tunab qolganlar 0,2 % tashkil etadi.


	Jami	1-3 kun tunash	4 – 7 kun tunash	8 – 28 kun tunash	29 – 91 kun tunash
Joylashtirilgan shaxslar, jami	14200	13294	704	198	4
shu jumladan fuqarolar:					
O'zbekistondan	6249	5350	698	197	4
MDH mamlakatlaridan	462	456	5	1	-
Xorijiy davlatlardan	7489	7488	1	-	-



2023- yilda boshqa joylashtirish vositalari obyektlari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilda boshqa joylashtirish vositalari obyektlari soni **13** tani tashkil etdi. Boshqa turdagi joylashtirish vositalariga xostellar va yotoqxonalar kiradi.

Boshqa joylashtirish vositalari obyektlari shahar va tumanlar kesimida, birlik



Boshqa turar joy obyektlari, birlik




Xonalar




2023- yilda boshqa turar joylarga shaxslarni joylashtirish

2023- yil davomida **8284** kishi boshqa turar joylarga joylashtirildi, ulardan **99,4 %** O'zbekiston fuqarolari, **0,4 %** MDH davlatlar fuqarolari va **0,2 %** xorijiy davlatlari fuqarolari bo'ldi.

Joylashtirilganlar shaxslar soni



Safar maqsadlari bo'yicha joylashtirilgan shaxslar, kishi



Boshqa turar joylarga joylashtirilgan shaxslardan **7146** kishi ish yuzasidan va kasbga oid maqsadlarda va **1138** kishi ta'til, bo'sh vaqt va dam olish maqsadida kelgan.



2023- yilda turish muddati bo'yicha boshqa joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi

Jami joylashtirilgan shaxslar sonidan joylashtirilgan shaxslarning 99,5 % kishi 1–3 kun tunagan, 0,5 % kishi 4–28 kun tunagan.

	Jami	1-3 kun tunash	4 – 7 kun tunash	8 – 28 kun tunash
Joylashtirilgan shaxslar, jami	8284	8239	44	1
shu jumladan fuqarolar:				
O'zbekistondan	8235	8190	44	1
MDH mamlakatlaridan	31	31	-	-
Xorijiy davlatlardan	18	18	-	-

Individual va boshqa joylashtirish vositalarida xodimlari soni

jami 80 kishi, ulardan:

58,7 %
erkaklar



41,3 %
ayollar



Statistikaga oid eslatmalar

Turizm – jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan, vaqtinchalik yashash joyidan (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan chiqib ketishi (sayohat qilishi).

Kirish turizmi kiruvchi sayyohlik safari davomida ushbu mamlakatdagi norezident mehmonning faoliyatini o'z ichiga oladi. Chiqish turizmi ko'rilayotgan mamlakatdan tashqarida doimiy yashovchi mehmonning chiqish yoki ichki turistik sayohati doirasidagi faoliyatini o'z ichiga oladi.

Turist – vaqtinchalik yashash uchun biron bir mamlakatga (joyiga) yigirma to'rt soatdan o'n ikki oygacha bo'lgan muddatda vaqtinchalik yashash uchun, daromad olish bilan bog'liq faoliyat bilan shug'ullanmasdan, yoki kamida ma'lum bir muddatga vaqtincha yashash uchun borgan jismoniy shaxs.

Mehmon (ziyorch) – boshqa davlatga o'z kasbiy faoliyatidan daromad olishdan boshqa maqsadni ko'zlab kelgan shaxs.

Do'stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish – ushbu turkumga qarindoshlar yoki do'stlarni ziyorat qilish kabi faoliyatlar kiradi; to'ylarda, dafn marosimlarida yoki boshqa oilaviy tadbirlarda qatnashish; kasal yoki qariyalarga qisqa muddatli g'amxo'rlik va boshqalar.

Ta'lim va kasbiy tayyorgarlik – ushbu toifaga ish beruvchilar yoki boshqa tashkilotlar/shaxslar tomonidan to'lanadigan qisqa muddatli kurslarda qatnashish, maxsus o'quv dasturlarini tamomlash yoki kurslarda ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lish, jumladan, pullik o'qish, til o'rganish, kasbiy yoki boshqa maxsus kurslar, ta'tillar va hokazolar kiradi.

Davolanish va sog'lomlashtirish muolajalari – ushbu toifaga shifoxonalardan, poliklinikalardan, sanatoriyalardan va tibbiy-ijtimoiy muassasalardan keyingi tibbiy yordam ko'rsatish xizmatlarini olish, dengizga va boshqa kurortlarga tashrif buyurish, shuningdek, tibbiy maslahat asosida tibbiy yordam olish uchun boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalar kiradi. Tibbiy asbob-uskunalar va xizmatlardan foydalangan holda kosmetik jarrohlik.

Ishga doir va kasbiy maqsadlar – ushbu toifaga yakka tartibdagi tadbirkorlar va xodimlarning faoliyati, agar ularda mamlakatda yoki tashrif buyurilgan joyda resident ishlab chiqaruvchi bilan aniq yoki nazarda tutilgan mehnat munosabatlari belgilari bo'lmasa, shuningdek investorlar, tadbirkorlar va boshqalar faoliyati kiradi.



Press-relizlarni tayyorlash uchun mas'ul:
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Navoiy viloyati
statistika boshqarmasi



e-mail: nv@navstat.uz



Manzil: Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4-uy



www.navstat.uz



Tel: +99879 223-54-98



facebook.com/navstatistika